Zamonaviy global iqtisodiy sharoitda xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy faoliyatini shaffof, ishonchli va xalqaro miqyosda qiyoslanuvchan tarzda aks ettirishga bo'lgan talab strategik ahamiyat kasb etmoqda. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari korxonaning iqtisodiy salohiyatini haqqoniy ifodalashning asosiy instrumenti bo'lib, global investitsion muhitda yagona iqtisodiy til vazifasini bajaradi [1]. Mazkur tizim investorlar, kreditorlar va boshqa stejkholderlar uchun axborotlar asimmetriyasini kamaytirishga hamda kapital bozorlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Xususan, 7-sonli MHHS (IAS 7) — «Pul mablag'lari oqimlari to'g'risidagi hisobot» standarti korxonaning likvidligi, to'lov qobiliyati va strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatini baholovchi fundamental ko'rsatkichdir [2].

Mualliflik yondashuviga ko'ra, pul oqimlarini samarali boshqarish korxonaning nafaqat joriy majburiyatlarini bajarishi, balki kelajakdagi investitsion loyihalarni ichki manbalar hisobidan moliyalashtirish salohiyatini ham belgilaydi. Bizning fikrimizcha, O'zbekistonda MHHS tizimiga o'tish faqat texnik jarayon emas, balki milliy biznesning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini ta'minlovchi konseptual islohotdir. Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı iqtisodiy islohotlar, xususan, davlat ishtirokidagi yirik korxonalar va bank-moliya tizimini transformatsiya qilish jarayoni bevosita hisob va hisobot tizimini xalqaro andozalarga moslashtirishni taqozo etadi.

Pul mablag'larining har bir harakati ortida korxonaning iqtisodiy xavfsizligi va barqaror o'sish sur'atlari mujassamlashgan bo'lib, ularning shaffofligi investorlar ishonchini qozonishning asosiy mezonı bo'lib xizmat qiladi. Mazkur jarayonda buxgalteriya hisobini xalqaro andozalar bilan uyg'unlashtirish korporativ boshqaruv sifatini yangi bosqichga olib chiqishga imkon beradi. Pul oqimlarini operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyat turlari bo'yicha xalqaro mezonlar asosida tasniflash korxonah rahbariyatiga moliyaviy risklarni oldindan prognoz qilish hamda "naqd pul taqchilligi" (cash gap) holatlarining oldini olish imkonini beradi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, zamonaviy iqtisodiyotda korxonaning bozor qiymati nafaqat uning balansidagi aktivlar, balki ushbu aktivlar tomonidan generatsiya qilinadigan kelajakdagi sof pul oqimlarining keltirilgan qiymati bilan belgilanadi. Shu bois, pul mablag'lari hisobini MHHS asosida takomillashtirish milliy korxonalarining xalqaro kapital bozorlariga, jumladan, yevrobondlar va IPO jarayonlariga chiqishi uchun zaruriy poydevor hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, xorijiy to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar oqimining ko'payishiga va mamlakatning xalqaro reytinglardagi mavqei mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Biznes subyektlarining moliyaviy resurslaridan samarali foydalanishda pul oqimlarini tizimli boshqarish va rejalashtirish strategiyasi zamonaviy iqtisodiyotda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Garchi ushbu mavzu nazariy jihatdan klassik iqtisodchilar tomonidan keng o'rganilgan bo'lsa-da, pul oqimlarini moliyaviy boshqaruvning alohida mustaqil obyekti sifatida tadqiq etish, ayniqsa global inqirozlarga qarshi boshqaruv va raqamli transformatsiya sharoitida hamon o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Bozor iqtisodiyotining fundamental tamoyillariga ko'ra, pul mablag'lari korxonaning eng yuqori likvidli aktivlari bo'lib, ularning harakati xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy salomatligini belgilaydi.

Xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda, xususan, J.K. Van Xorn kabi olimlarning ilmiy ishlarida pul oqimlari korxonaning bozor qiymatini belgilovchi asosiy omil sifatida e'tirof etiladi [3]. Ushbu yondashuvga ko'ra, pul mablag'larining vaqt bo'yicha qiymati (time value of money) konsepsiyasi pul oqimlarini boshqarishning nazariy poydevori hisoblanadi. Van Xorn moliyaviy menejment tizimida likvidlik va rentabellik o'rtasidagi muvozanatni saqlash korxonaning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlashini ta'kidlaydi. Zamonaviy yondashuvlarga ko'ra, pul oqimlarini boshqarish nafaqat buxgalteriya hisobini yuritish jarayoni, balki korxonaning ichki moliyaviy manbalarini safarbar etish va strategik likvidlikni ta'minlash vositasidir.

Shuningdek, M. Porterning raqobatbardoshlik nazariyalari kontekstida pul oqimlarini boshqarish samaradorligi korxonaning innovatsion salohiyatini moliyalashtirish va bozorda yetakchilikni saqlab qolishning muhim sharti sifatida talqin qilinadi. Porterning «qiymat zanjiri» (value chain) konsepsiyasiga muvofiq, pul oqimlarining barqarorligi korxonaning har bir funksional bo'g'inida qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatini kengaytiradi hamda raqobat ustunligini shakllantiradi. Bunda pul mablag'larini boshqarish tizimi korporativ



strategiyaning ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Mualliflik kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatadiki, mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda pul oqimlari ko'pincha faqat kassa aylanmalari yoki buxgalteriya balansining ilovasi sifatida, ya'ni texnik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Biroq, bizning ilmiy fikrimizga ko'ra, mazkur tushunchani iqtisodiy subyektning moliyaviy «genetikasi» sifatida qarash lozim. Zero, pul harakatining dinamikasi, uning kirim va chiqim strukturasi korxonaning yashovchanlik darajasini va tashqi shoklarga bardoshlilikini belgilab beradi. I.A. Blank kabi tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, pul oqimlarini boshqarishning samarali tizimi korxonaning kapital aylanishini tezlashtirishning asosiy mexanizmi hisoblanadi [4]. Blankning fikricha, pul oqimlarini optimallashtirish orqali korxonada qimmat kredit resurslariga bo'lgan ehtiyojini kamaytirishi va ichki moliyaviy zaxiralarini oshirishi mumkin.

So'nggi yillarda moliyaviy menejment nazariyasida "free cash flow" (erkin pul oqimi) konsepsiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jensen va Mecklingning agentlik nazariyasiga muvofiq, erkin pul oqimlarini samarali nazorat qilish aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish va korporativ boshqaruv sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi [5]. Mazkur yondashuv korxonada rahbariyati tomonidan resurslardan nooqilona foydalanish xavfini kamaytirish va investitsion qarorlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, pul oqimlarini xalqaro standartlar asosida shakllantirish korporativ shaffoflikni ta'minlashning asosiy shartiga aylanmoqda.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda «coopetition» — ya'ni raqobatli hamkorlikning uyg'unlashuvi konsepsiyasi doirasida pul oqimlarini boshqarishga yangicha nazar tashlanmoqda. Bunda korxonalarining strategik sheriklik aloqalari tranzaksiya xarajatlarni kamaytirish va pul mablag'larining aylanish tezligini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot sharoitida Big Data, sun'iy intellekt (AI) va ERP tizimlari orqali pul oqimlarini prognozlash va monitoring qilish mexanizmlari moliyaviy boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda [6]. Ilmiy izlanishlar natijasida aytish mumkinki, pul mablag'larining vaqt bo'yicha taqsimlanishi va ularning real xarid qobiliyatini inflyatsiya sharoitida saqlab qolish muammosi adabiyotlarda hamon yetarlicha yechim topmagan murakkab metodologik vazifa bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, pul oqimlarini boshqarish nazariyasi evolyutsion tarzda rivojlanib, oddiy hisob-kitob amaliyotidan murakkab strategik moliyaviy menejment darajasiga ko'tarilgan. Pul oqimlarining tarkibiy qismlarini operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyat kesimida chuqurroq tadqiq etish nafaqat nazariy bilimlarni boyitadi, balki amaliy boshqaruvda resurslardan optimal foydalanish imkoniyatini kengaytiradi. Bu esa, o'z navbatida, milliy iqtisodiyotda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlashda metodologik poydevor bo'lib xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalalari tizimli yondashuv va qiyosiy tahlil metodlari yordamida o'rganildi. Metodologik jihatdan induksiya va deduksiya, mantiqiy umumlashtirish hamda iqtisodiy-statistik tahlil usullaridan keng foydalanildi. Tadqiqotning nazariy va uslubiy asosini 7-sonli MHHS (IAS 7) standarti hamda milliy buxgalteriya hisobi standartlari (BHMS) tashkil etadi.

Pul oqimlarini operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyat turlari bo'yicha tasniflashda «iqtisodiy mazmunning huquqiy shakldan ustunligi» tamoyiliga tayanildi. Shuningdek, pul mablag'lari harakatini bevosita va bilvosita usullarda baholashning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash maqsadida qiyosiy-uslubiy yondashuv qo'llanildi.

Tadqiqot davomida korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi omillar va pul oqimlarini optimallashtirish modellari ilmiy jihatdan tahlil qilindi hamda olingan natijalar asosida mualliflik tavsiyalari shakllantirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida pul oqimlarini boshqarish tizimini transformatsiya qilish nafaqat buxgalteriya hisobidagi texnik o'zgarish, balki korxonaning strategik moliyaviy boshqaruv mexanizmini tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistondagi xo'jalik yurituvchi subyektlarda pul mablag'lari hisobini 7-sonli MHHS (IAS 7) — «Pul mablag'lari oqimlari to'g'risidagi hisobot» standartiga muvofiq tashkil etish jarayonida pul oqimlarini faoliyat turlari bo'yicha tasniflashni takomillashtirish, pul ekvivalentlarini baholash mezonlarini yanada aniqlashtirish hamda axborot tizimlari integratsiyasini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

MHHS konsepsiyasiga muvofiq, pul oqimlari uchta asosiy faoliyat turi bo'yicha tasniflanadi: operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyat. Milliy amaliyotda esa ayrim operatsiyalarning iqtisodiy mazmuniga emas,

balki huquqiy shakliga ustuvor ahamiyat berilishi natijasida hisobotlarda ma'lumotlar haqqoniyligining buzilishi kuzatilmoqda. Masalan, asosiy vositalarni realizatsiya qilishdan tushgan mablag'lar ba'zi hollarda operatsion faoliyat tarkibida aks ettiriladi, holbuki IAS 7 talablariga ko'ra mazkur operatsiya investitsion pul oqimi sifatida tan olinishi lozim. Bu esa investorlar va kreditorlar uchun korxonaning haqiqiy operatsion pul generatsiyasi salohiyatini baholashda axborot asimmetriyasini yuzaga keltiradi (1-jadval).

#### 1-jadval

#### BHMS va MHHS (IAS 7) bo'yicha pul oqimlari tasnifining qiyosiy tahlili

Operatsiya turi	Milliy standart (BHMS) bo'yicha yondashuv	MHHS (IAS 7) bo'yicha yondashuv	Iqtisodiy mazmuni va ta'siri
Asosiy vositalar sotuvi	Ayrim hollarda operatsion tushum sifatida aks ettiriladi	Investitsion faoliyat sifatida tan olinadi	Aktivlar tarkibidagi o'zgarishlarni ifodalaydi
Olingan foizlar va dividendlar	Daromad yoki moliyaviy faoliyat sifatida	Hisob siyosatiga ko'ra investitsion yoki operatsion faoliyat	Investitsiya samaradorligini baholash imkonini beradi
To'langan foizlar	Operatsion xarajat sifatida	Moliyaviy yoki operatsion faoliyat	Kapital qiymatini baholashda muhim
Pul ekvivalentlari	Faqat depozitlar bilan cheklanadi	3 oydan oshmaydigan yuqori likvidli instrumentlar	Qisqa muddatli to'lov qobiliyati indikator

Jadval tahlilidan ko'rinadiki, MHHS tizimida operatsiyalarning iqtisodiy mazmuniga ustuvor ahamiyat beriladi. Bu yondashuv korxonaning likvidligi va moliyaviy barqarorligini real baholash imkonini yaratadi. Ayniqsa, pul ekvivalentlarini baholashda milliy tizimdagi cheklangan yondashuvdan voz kechib, xalqaro likvidlik mezonlarini joriy etish "cash gap" — naqd pul taqchilligi xavfini oldindan prognoz qilish imkoniyatini oshiradi.

Tadqiqotning muhim jihatlaridan biri pul oqimlarini hisoblashning bevosita va bilvosita usullarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat bo'ldi. Bevosita usulda pul tushumlari va chiqimlari bevosita aks ettiriladi, bilvosita usulda esa sof foyda pulsiz operatsiyalarga tuzatishlar kiritish orqali operatsion pul oqimiga transformatsiya qilinadi. IAS 7 standartiga muvofiq, investorlar uchun axborot qiymati yuqori bo'lgani sababli, bilvosita usul keng qo'llaniladi (2-jadval).

#### 2-jadval

#### Bilvosita usul yordamida operatsion pul oqimining shakllanishi

Ko'rsatkich nomi	Summa (mln. so'm)	Tahliliy izoh
Sof foyda (Net Income)	1 500	Hisobot davridagi yakuniy moliyaviy natija
(+) Amortizatsiya xarajatlari	+450	Pul chiqimi bilan bog'liq bo'lmagan xarajat
(-) Debitorlik qarzlarning ortishi	-200	Daromad tan olingan, ammo pul tushumi amalga oshmagan
(+) Kreditorlik qarzlarning ortishi	+150	Majburiyat yuzaga kelgan, ammo pul chiqimi bo'lmagan
(-) Zaxiralar (Inventory) ko'payishi	-300	Pul mablag'lari tovar-moddiy zaxiralarga yo'naltirilgan
Operatsion faoliyatdan sof pul oqimi	1 600	Real pul yaratish salohiyati

Ushbu tahlil shuni ko'rsatadiki, korxonaning sof foydasi 1 500 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa-da, operatsion faoliyat natijasida shakllangan sof pul oqimi 1 600 mln so'mga teng bo'lgan. Bu holat korxonaning foydasining real pul mablag'lari bilan ta'minlanganligini va uning ichki moliyaviy barqarorligi yuqori ekanligini anglatadi. Agar operatsion pul oqimi manfiy bo'lganida, korxonaning buxgalteriya nuqtayi nazaridan foyda ko'rayotgan bo'lsa ham, likvidlik inqirozi xavfi yuzaga kelgan bo'lardi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, korxonalarda MHHSga transformatsiya qilish jarayoni ko'pincha yil yakunida



“adjustment” kiritish bilan cheklanmoqda. Bu esa axborotning tezkorligi va boshqaruv qarorlarining samaradorligini pasaytiradi. Shu bois, pul oqimlarini avtomatlashtirilgan ERP tizimlari bilan integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi (3-jadval).

### 3-jadval

#### Pul oqimlarini boshqarishda risklarni baholash va optimallashtirish modeli

Risk turi	Ta'sir darajasi	MHHS asosidagi boshqaruv mexanizmi	Kutilayotgan natija
Valyuta riski	Yuqori	Valyutalar kesimida pul oqimlarini sementatsiya qilish	Kurs tafovutlari bo'yicha yo'qotishlarni kamaytirish
Likvidlilik riski	O'rta	Haftalik prognoz tizimi	To'lov qobiliyati inqirozining oldini olish
Inflyatsiya xavfi	Yuqori	Pul ekvivalentlarini real qiymatda baholash	Xarid qobiliyatini saqlash
Nazoratsiz chiqimlar	O'rta	ERP orqali byudjetlashtirish va monitoring	Mablag'lardan samarali foydalanish

Mazkur modelning amaliyotga tatbiq etilishi korxonalariga pul mablag'larini faqat hisobga olish emas, balki strategik boshqarish imkoniyatini beradi. Tahlil natijalariga ko'ra, MHHS asosida shakllantirilgan pul oqimlari hisoboti investorlar uchun axborot shaffofligini oshirib, korxonaning investitsion jozibadorligini sezilarli darajada kuchaytiradi.

Shu bilan birga, xalqaro standartlarni milliy iqtisodiyot xususiyatlari bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyatga ega. Xususan, valyuta bozoridagi o'zgaruvchanlik, inflyatsiya darajasi va soliq tizimiga xos omillar pul oqimlarini prognozlash jarayonida inobatga olinishi lozim. Bizning fikrimizcha, operatsion faoliyatdan shakllanadigan barqaror pul oqimlari korxonaning strategik rivojlanishi, dividend siyosati va investitsion salohiyatining asosiy kafolatidir.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy xulosalar ilgari surildi:

- Pul oqimlarini tasniflashda operatsiyalarning huquqiy shakli emas, balki iqtisodiy mazmuni ustuvor bo'lishi lozim.
- Pul ekvivalentlarini baholashda likvidlilik muddatini qat'iy 90 kunlik mezon asosida belgilash to'lov qobiliyatini aniq baholash imkonini beradi.
- Bilvosita usul orqali aktivlar va majburiyatlardagi o'zgarishlarning pul oqimiga ta'sirini monitoring qilish tizimini joriy etish zarur.
- ERP va raqamli analitika vositalari asosida real-time cash-flow monitoring tizimini joriy etish moliyaviy risklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, pul mablag'lari hisobini MHHS asosida transformatsiya qilish korxonalarda “shaffoflik iqtisodiyoti”ni shakllantirishga xizmat qiladi. Pul oqimlarini samarali boshqarish esa korxonaning nafaqat bugungi likvidlili, balki uning uzoq muddatli strategik raqobatbardoshligi va investitsion barqarorligining ham muhim kafolati hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan ilmiy tadqiqot va tizimli tahlillar natijasida shunday xulosaga kelindiki, milliy iqtisodiyotni transformatsiya qilish sharoitida pul mablag'lari hisobini MHHS talablari asosida takomillashtirish korxonalarining strategik barqarorligini ta'minlovchi bosh omil hisoblanadi. 7-sonli MHHS (IAS 7) standartini joriy etish shunchaki buxgalteriya shakllarini o'zgartirish emas, balki korxonaning likvidlili va to'lov qobiliyatini baholashda yangicha, shaffof metodologiyaga o'tish demakdir. Tadqiqot davomida aniqlangan operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyat oqimlarini tasniflashdagi o'ziga xos jihatlari korxonaning real iqtisodiy holatini investorlarga haqqoniy yetkazib berish imkonini beradi.

Fikrimizcha, pul oqimlarini boshqarish samaradorligi korxonaning ichki moliyaviy “genetikasi”ni sog'lomlashtirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda pul va pul ekvivalentlarini baholashda uch oylik qat'iy likvidlilik mezonidan foydalanish moliyaviy risklarni kamaytirishning eng maqbul yo'lidir. Shuningdek, tadqiqot davomida ko'rib chiqilgan bilvosita usul (indirect method) korxonalar rahbariyatiga sof foydaning pul mablag'lariga aylanish sifatini monitoring qilish va aktivlar aylanishini tezlashtirish bo'yicha tezkor qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Ilmiy izlanishlar natijalaridan kelib chiqqan holda, O'zbekiston korxonalarida pul mablag'lari hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

**Metodologik jihatdan:** xo'jalik yurituvchi subyektlarning ichki hisob siyosatida pul oqimlarini tasniflashda

“iqtisodiy mazmunning huquqiy shakldan ustuvorligi” tamoyilini qat’iy belgilash zarur. Ayniqsa, ijaraga berilgan aktivlar sotuvi va moliyaviy instrumentlar bilan bog’liq operatsiyalarni operatsion faoliyat tarkibida aks ettirish bo’yicha ichki metodik yo’riqnomalarni ishlab chiqish lozim.

**Texnologik jihatdan:** ma’lumotlarni yig’ish va qayta ishlashda inson omili xatoliklarini bartaraf etish maqsadida, MHHS modullariga ega bo’lgan zamonaviy ERP tizimlarini (SAP, Microsoft Dynamics yoki 1C’ning xalqaro standartlarga moslashtirilgan versiyalari) keng joriy etish va pul oqimlari to’g’risidagi hisobotni avtomatik tarzda shakllantirish tizimiga o’tish zarur.

**Tahliliy jihatdan:** korxonalarda har oylik yakunlar bo’yicha pul oqimlarining bilvosita usul asosidagi tahlilini yo’lga qo’yish tavsiya etiladi. Bunda debitorlik va kreditorlik qarzlarning, shuningdek, zaxiralarning pul oqimiga ta’sirini baholovchi “Likvidlilik matritsasi”ni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

**Kadrlar salohiyatini oshirish:** buxgalteriya va moliya bo’limi xodimlarini xalqaro sertifikatli (ACCA, DipIFR) tizimlari asosida muntazam malakasini oshirib borish, ularda nafaqat hisob yuritish, balki MHHS asosida moliyaviy tahlilni amalga oshirish ko’nikmalarini shakllantirish lozim.

Ushbu takliflarning amaliyotga joriy etilishi mahalliy korxonalarining moliyaviy shaffofligini ta’minlab, ularning xalqaro kapital bozorlaridagi investitsion jozibadorligini oshiradi hamda barqaror iqtisodiy o’sish sur’atlarini kafolatlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. International Accounting Standards Board (IASB). Conceptual Framework for Financial Reporting. – 2018.
2. International Accounting Standards Board (IASB). IAS 7 – Statement of Cash Flows. – 2023 version.
3. Van Horne, J.C. Financial Management and Policy. 12th ed. – New Jersey: Prentice Hall, 2002. – 688 p.
4. Blank, I.A. Upravlenie denezhnymi potokami. – Kiev: Nika-Centr, 2007. – 752 s.
5. Van Horne, J.C., Wachowicz, J.M. Fundamentals of Financial Management. – Harlow: Pearson Education, 2022. – 720 p.
6. Blank, I.A. Upravlenie denezhnymi potokami. – Kiev: Nika-Centr, 2021. – 736 s.
7. Jensen, M.C., Meckling, W.H. (1976). Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs and Ownership Structure. *Journal of Financial Economics*, 3, 305–360.
8. Laudon, K.C., Laudon, J.P. Management Information Systems: Managing the Digital Firm. – New York: Pearson, 2023. – 669 p.
9. Сирожиддинов, И.К., Исомухамедов, А.Б. (2022). Развитие экспортной направленности сельскохозяйственного производства.
10. Isomuhamedov, A. (2023). Organization of accounting in structures of a small business in the construction field. *International Journal of Research in Commerce, IT, Engineering and Social Sciences*, 17(12), 27–32.
11. Boxodir o’g’li, I.A. (2025). Organization of accounting for expenses and income in small businesses. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 6(3), 1053–1059.
12. Boxodir o’g’li, I.A. (2025, December). XaraJatlar va daromadlar hisobi tizimini takomillashtirish yo’nalishlari. In Partner conferences of the International Scientific Journal Research Focus (Vol. 1, No. 1, pp. 990–992).
13. Boxodir o’g’li, I.A. (2023). Accounting and analysis of costs as a basis of budgeting. *Asia Pacific Journal of Marketing & Management Review*, 12(04), 9–12.
14. Abdulazizovich, X.U.B., Murodillayevich, N.J. (2026). O’zbekistonda mahalliy budjet daromadlari shakllanishining amaldagi holati tahlili. *American Journal of Business Management*, 4(3), 43–51.
15. Xolmirzayev, U.B. (2023). Bilimlar iqtisodiyoti va fan sohasi tushunchalari tizimining xususiyatlari. *Green Economy and Development*, 1(11), 664441.
16. Isomukhamedov, A., et al. (2025). Using AI enterprise expenses prediction and budgeting mechanisms. *Reliability: Theory & Applications*, 20(SI 10(88)), 365–371.
17. Abdulazizovich, X.U.B. (2025). Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta’minotini kuchaytirish zarurligi va omillari tahlili. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 5(03), 142–146.
18. Sobirjon o’g’li, J.E., Abdulazizovich, X.U.B. (2019). Profits of housekeeping and its development. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 8(4), 419–423.
19. Abdulazizovich, X.U.B. (2025). Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta’minotini kuchaytirish zarurligi va omillari tahlili. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 5(03), 142–146. (takroriy yozuv)
20. Abdulazizovich, K.U. (2023). Positive aspects of the cash method in small enterprises under unusual circumstances. *Asia Pacific Journal of Marketing & Management Review*, 12(11), 38–47.
21. Xolmirzayev, U.B., Ubaydullayev, T. O’zbekiston Respublikasida davlat-xususiy sheriklik sohasida me’yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqish. *Green Economy and Development*, 3(10), 667114.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)